TRANSFERRING PORT MULTIMODAL COORDINATION CAPABILITIES ACROSS INSTITUTIONAL CONTEXTS: LOCALIZATION MECHANISMS IN THE CHINA-UZBEKISTAN LOGISTICS CORRIDOR.....	1146
Mu Zhendi	
TURIZM XIZMATLARINING SIFATINI OSHIRISH ORQALI MEHMONDO'STLIK INDUSTRIYASINI RIVOJLANTIRISH.....	1156
Z.T. Bakayev	
ESG-ПРИНЦИПЫ В СТРОИТЕЛЬСТВЕ УЗБЕКИСТАНА: ОТ ПЕРВЫХ ИНИЦИАТИВ К ФОРМИРОВАНИЮ УСТОЙЧИВОЙ МОДЕЛИ ОТРАСЛИ.....	1161
Аблаева Валентина Борисовна	
KAMBAG'ALLIK DARAJASINI PASAYTIRISHDA ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATINI KENGAYTIRISHNING O'RNI.....	1169
Saparov Murod Irgashovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: EKONOMETRIK TAHLIL.....	1173
Qo'ziboyev Behzod Hamidovich	
"2025-YIL YAKUNI BO'YICHA O'ZBEKISTONDA INFLYATSIYA OMILLARI: IMF VA MARKAZIY BANK MA'LUMOTLARI TAHLILI".....	1177
Ergashev E'zozbek Umirzakovich, Vaxabov A.V.	
KORXONANING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA RAQOBAT RAZVEDKASIDAN FOYDALANISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	1183
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA AHOLI MIGRATSIYASI TAHLILI (2010-2024 YILLAR).....	1188
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
ВОПРОСЫ ПРИМЕНЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОТРАСЛЯХ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	1192
Аман Тургунович Кенжабаев, Бахтияр Бадриддинович Садриддинов	
SANOAT KORXONALARIDA YASHIL IQTISODIY FAOLIYATNI BAHOLASH USULLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	1200
Zuxurova Nargiza Abdusattarovna	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IPOTEKANI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH AMALIYOTI.....	1204
Berdinazarov Zafar Ulashovich, Xayitov Bobirbek Ergashevich	
XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQ IKKIYOQLAMA SOLIQQA TORTISHNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARINING TAHLILI.....	1212
Rajapov Shuxrat Zaripbayevich	
SURXONDARYO VILOYATIDA YASHIL IQTISODIYOTNING HOZIRGI HOLATI VA YASHIL TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI.....	1221
Sharofitdinov Shaxzod Damin o'g'li	
TOSHKENT SHAHRIDA EKOLOGIK HOLAT YOMONLASHUVINING TASHQI INVESTITSİYALARGA TA'SIRI.....	1228
Poyonov Jamshid	
RAQAMLI TURIZM PLATFORMALARIDA KONTENT TAHLILI HAMDA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI.....	1232
Janzakov Bekzot Kulmamat o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA'LIM SOHASIDA INVESTITSION RISKLARNI BAHOLASH TENDENSIYALARI.....	1240
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA SIRKULAR BOSHQARUV STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1246
Utegenov Ilham Baxtiyarovich	
GO'SHT YETISHTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA).....	1250
Otabekov Javdod Nurulla o'g'li	



O'ZBEKISTONDA TASHQI AUDIT TIZIMINING RIVOJLANISHI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	1256
Ibayev Xo'jabek, Ergashev Olloyor Furqat o'g'li	
SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL BASES OF THE DEVELOPMENT OF SEPARATE SEGMENTS ... OF REGIONAL BUSINESS TOURISM	1261
Musayeva Shoirazimovna, Usmonova Dilfuza Ilkhomovna	
QISHLOQ XO'JALIGIDA "YASHIL" TRANSFORMATSIYANING XUSUSIYATLARI	1267
Tabayev Azamat Zaripbayevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI	1272
Babanazarova Gulzar Ziatdinovna	
EKOLOGIK SOLIQLARNI HISOBLASH VA UNDAIRISH METODOLOGIK ASOSLARINI YARATISH	1276
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich	
IQTISODIYOTDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIK SANOAT ZONALARINI TASHKIL ETISHNING IQTISODIY VA IJTIMOY AHAMIYATI	1281
Fayziyeva Iroda Shuhrat qizi	
CAPITAL ADEQUACY AND FINANCIAL STABILITY OF COMMERCIAL BANKS IN UZBEKISTAN	1286
Shokhrux Komilov	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA TURIZM SOHASINI STATISTIK BAHOLASH METODOLOGIYASI	1291
Jumanova Zilola Tuychiyevna, Sur'atova Mohiraxon Shavkat qizi	
AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANISHINI BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	1296
Raximova Moxigul Isroiljonovna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA HUDUDIY TAMOYILLARNING O'RNI	1300
Abduraimov Dilshod Muratkulovich	
ENHANCING STRATEGIC MANAGEMENT IN TOURISM SERVICE ENTERPRISES IN UZBEKISTAN: A SWOT-BASED ANALYSIS	1304
Mustafakulova Sitara Shukhratovna	
SUG'URTA KOMPANIYALARIDA AXBOROT TIZIMLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH ORQALI MOLIYAVIY BARQARORLIKKA ERISHISH YO'NALISHLARI	1310
Maxmudov Abduxalil Abduraxmon o'g'li	
O'ZBEKISTON AHOLISI JINSI NISBATINING HUDUDIY VA YOSH FARQLANISHINI STATISTIK TADQIQI	1314
Toshmatov Zoyir Xudayberganovich, Begalova Durdona Baxodirovna	
MAMLAKATDA INVESTITSIYA MUHITNI YAXSHILASH ORQALI INVESTITION JOZIBADORLIKNI OSHIRISH YO'LLARI	1321
Roza Xudaybergenova	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLI BANDLIGINING INNOVATION VA MOSLASHUVCHAN SHAKLLARINI RIVOJLANTIRISH	1326
Umarova Gulandom Tumanovna	
ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОЕ ПАРТНЕРСТВО В КОММУНАЛЬНОЙ СФЕРЕ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ОПЫТА КИТАЯ И ВЕЛИКОБРИТАНИИ И ВОЗМОЖНОСТИ УЗБЕКИСТАНА	1330
Гулмаматова Дурдона Шерали кизи	
KONSTRUKTIV MASALANI YECHISH USLUBI	1334
Azimov Alisher, Sabirova Dildora, Tairova Nafisa	
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОНСОЛИДИРОВАННОЙ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ	1338
Махмудова Наргиза Давлят кизи	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BUXGALTERIYA HISOBIDAGI TA'SIRI	1343
Mardonov Mamed Shavkatovich, Suyunov Raxmatillo Raximberdi o'g'li	
АНАЛИЗ И СПОСОБЫ ПОВЫШЕНИЯ ФИНАНСОВО-ДЕЛОВОЙ АКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ	1347
Ахмедова Азиза Тохириевна	



MAKROIQTISODIY TEBRANISHLAR VA IQTISODIY SIKLLAR: SABABLARI VA RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	1352
Muxammedov Murod Muxamedovich	
O'ZBEKISTONDA VAZIRLIK VA IDORALARDA ICHKI AUDIT XIZMATLARI FAOLIYATINI BAHOLASH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	1356
Ibragimova Muxlisa Abdulxakimovna	
HUDUDNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA TURISTIK-REKREATIONS SALOHİYATNING MAZMUNI VA ILMIY TALQINI.....	1362
Usmanova Zumrad Islamovna	
ВЛИЯНИЕ ТОРГОВОГО БАЛАНСА УЗБЕКИСТАНА И КИТАЯ НА РАЗЛИЧНЫЕ ОТРАСЛИ.....	1366
He Xiaogu, Уркинбаев Т. А.	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTIONAL VA MOLIYAVIY JIHATLARI TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI.....	1370
Dilobar Isomjonovna, No'monova Hilola Muftillo qizi	
SUG'URTA VA FOND BOZORLARI O'RTASIDAGI O'ZARO INTEGRATSIYA BO'YICHA XORIJ TAJRIBASI.....	1375
Kengesbaeva Suluxan Maxsetbay qizi	
ЭКОНОМИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ ЭКСПОРТА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ПРОДУКЦИИ И ЕГО РОЛЬ В РАЗВИТИИ РЕГИОНА.....	1380
Тулибаева Камола	
АНАЛИЗ ЛИКВИДНОСТИ БАНКОВ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ФИНАНСОВУЮ УСТОЙЧИВОСТЬ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ.....	1385
Ходжаева Феруза Авазхановна	
XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO TAHLILI VA ISTIQBOLLARI.....	1389
Qurbanov Feruz Baxramovich	
INNOVATSION IQTISODIYOTDA INSON KAPITALINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY VAZIFALARI.....	1395
Alimova Oydin Baxtiyarovna	
OUTSOURCING: A MODERN WAY TO INCREASE THE EFFICIENCY OF ENTERPRISES.....	1402
Dauletalieva Aymereke Sagievna	
O'ZBEKISTONDA YUK VAGONLARINI ISHLAB CHIQRISHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1406
Xaydarov Ismatulla	



O'ZBEKISTONDA YUK VAGONLARINI ISHLAB CHIQARISHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY SAMARADORLIGI

Xaydarov Ismatulla

Toshkent davlat transport universiteti

Transport iqtisodiyoti kafedrası dotsenti v.b., PhD.

E-mail: haydarovismat271@gmail.com

ORCID: 0000-0003-3516-215X

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 21-fevraldagi PQ–72-son qarori asosida O'zbekiston temir yo'llari AJ tomonidan amalga oshirilayotgan yuk vagonlari ishlab chiqarish loyihasining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqotda to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita (soliq tushumlari, yondosh tarmoqlar rivojlanishi) ijtimoiy ta'sir ko'rsatkichlari miqdoriy baholangan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, loyiha doirasida ikki korxona — AJ "Liteynomexanik zavod" va AJ "Andijon avtomobil va traktori sanoati zavodlari remontlash vagonlari"da jami 2 057 ta bevosita ish o'rni yaratilgan bo'lib, bandlik multiplikatori ($k = 2,3$) hisobga olingan holda mintaqada 6 788 ta ish o'rni yaratilishi prognoz qilinmoqda. Yillik ish haqi fondi 178,1 mlrd so'mni tashkil etib, iste'mol multiplikatori ($k = 1,6$) orqali aholi daromadlariga 285,0 mlrd so'mlik qo'shimcha ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. 10 yillik davr mobaynida byudjet samarasi 427,5 mlrd so'mga, aholi daromadlari esa 1 781,3 mlrd so'mga yetishi kutilmoqda.

Kalit so'zlar: yuk vagonlari, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik, bandlik multiplikatori, ish haqi fondi, soliқ tushumlari, O'zbekiston temir yo'llari, transport sanoati, mintaqaviy rivojlanish.

Abstract. This article analyzes the socio-economic efficiency of the freight wagon production project implemented by O'zbekiston temir yo'llari JSC in accordance with the Presidential Resolution of the Republic of Uzbekistan No. PQ–72 dated February 21, 2026. The study provides a quantitative assessment of both direct and indirect social effects, including tax revenues and the development of related industries. The findings indicate that within the project, 2,057 direct jobs have been created at two enterprises — JSC "Foundry-Mechanical Plant" and JSC "Andijan Wagon Repair Plant for Automotive and Tractor Industry." Considering the employment multiplier ($k = 2.3$), a total of 6,788 jobs are projected to be created in the region. The annual wage fund amounts to 178.1 billion UZS, which, together with the consumption multiplier ($k = 1.6$), contributes an additional 285.0 billion UZS to household incomes. Over a 10-year period, the fiscal impact is expected to reach 427.5 billion UZS, while household incomes may increase to 1,781.3 billion UZS.

Key words: freight wagons, socio-economic efficiency, employment multiplier, wage fund, tax revenues, O'zbekiston temir yo'llari, transport industry, regional development.

Аннотация. В данной статье проанализирована социально-экономическая эффективность проекта по производству грузовых вагонов, реализуемого АО О'zbekiston temir yo'llari в соответствии с постановлением Президента Республики Узбекистан № PQ–72 от 21 февраля 2026 года. В исследовании проведена количественная оценка прямых и косвенных социальных эффектов (налоговые поступления, развитие смежных отраслей). Результаты показывают, что в рамках проекта на двух предприятиях — АО «Литейно-механический завод» и АО «Андижанский завод по ремонту вагонов автомобильной и тракторной промышленности» — создано 2 057 прямых рабочих мест. С учетом мультипликатора занятости ($k = 2,3$) прогнозируется создание 6 788 рабочих мест в регионе. Годовой фонд заработной платы составляет 178,1 млрд сумов, что с учетом потребительского мультипликатора ($k = 1,6$) обеспечивает дополнительный рост доходов населения на 285,0 млрд сумов. За 10-летний период бюджетный эффект составит 427,5 млрд сумов, а доходы населения достигнут 1 781,3 млрд сумов.

Ключевые слова: грузовые вагоны, социально-экономическая эффективность, мультипликатор занятости, фонд заработной платы, налоговые поступления, O'zbekiston temir yo'llari, транспортная промышленность, региональное развитие.



KIRISH

Temir yo'l transporti O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy infratuzilma tarmoqlaridan biri bo'lib, mamlakatning ichki va tashqi savdo aloqalarini ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etadi. Biroq so'nggi yillarda yuk tashish hajmining barqaror o'sishi fonida mavjud vagon parklarining eskirishi va yetishmovchiligi sanoat, agrar hamda qurilish sektorlarining samaradorligini cheklovchi omillardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, mavsumiy yuklanish — hosil yig'im-terim va isitish mavsumlari davrida "vagon taqchilligi" muammosi yanada dolzarblik kasb etadi.

2026-yil 21-fevraldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-72-son qarori mazkur muammoni tizimli hal etishga qaratilgan. Mazkur qarorga muvofiq, O'zbekiston temir yo'llari AJ tomonidan yuk vagonlari parkini yangilash va kengaytirish bo'yicha qator amaliy vazifalar belgilangan. Xususan, 2026-yilda temir yo'l xizmatlari hajmini 15,5 trillion so'mga yetkazish, yuk tashish hajmini 10 foizga oshirib 115,5 million tonnaga yetkazish, yillik yuk vagonlari ishlab chiqarishni 2 ming donaga, xalqaro tashuvlarda foydalaniladigan vagonlar sonini esa 15,3 mingga yetkazish rejalashtirilgan.

Moliyalashtirish manbai sifatida Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari hisobidan 10 yil muddatga (3 yillik imtiyozli davr bilan), yillik 5 foiz stavkada 100 million AQSh dollari miqdorida kredit jalb etilishi ko'zda tutilgan.

Loyihaning iqtisodiy samaradorligi ma'lum darajada o'rganilgan bo'lsa-da, uning ijtimoiy ta'siri — xususan, bandlik tuzilmasi, aholi daromadlariga multiplikativ ta'siri, soliq bazasiga qo'shgan hissasi hamda mintaqaviy rivojlanishdagi o'rni — ilmiy tadqiqotlarda yetarli darajada yoritilmagan. Mazkur maqola aynan shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqotning maqsadi — O'zbekiston temir yo'llari AJ tomonidan amalga oshirilayotgan yuk vagonlari ishlab chiqarish loyihasining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini miqdoriy va sifat jihatdan baholash hamda uning mintaqaviy ijtimoiy tizimga ta'sirini asoslab berishdan iborat.

Qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- loyihaning to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita ijtimoiy ta'sirini tavsiflovchi metodologik asosni shakllantirish;
- AJ "Liteyno-mexanik zavod" (LMZ) va AJ "Andijon avtomobil va traktori sanoati zavodlari remontlash vagonlari" (AZRV) kesimida bandlik, ish haqi va soliq ko'rsatkichlarini miqdoriy baholash;
- bandlik va iste'mol multiplikatorlari asosida bilvosita ijtimoiy samarani hisoblash;
- 10 yillik loyiha doirasida byudjet va aholi daromadlari samaralarini prognoz qilish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yuk vagonlari ishlab chiqarishning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholash muammosi transport iqtisodiyoti, investitsion loyihalarni ijtimoiy baholash hamda mintaqaviy rivojlanish nazariyalari kesishmasida joylashgan murakkab ilmiy yo'nalish hisoblanadi. Mazkur yo'nalish bo'yicha tadqiqotlar xalqaro, MDH va o'zbek ilmiy maktablari doirasida izchil rivojlanib kelmoqda.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda ushbu muammoning metodologik asoslarini shakllantirishda bir nechta yo'nalishlar alohida ahamiyat kasb etadi. David Banister va Joseph Berechman transport investitsiyalarining iqtisodiy o'sishga ta'sirini tahlil qilib, infratuzilma va ishlab chiqarishni kengaytirish o'rtasidagi bog'liqlik chiziqli emas, balki klaster va aglomeratsiya samaralari orqali kuchayishini asoslab berganlar. Ushbu yondashuv yuk vagonlari ishlab chiqarishida mintaqaviy ta'sir ko'lamini baholash uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Desta Bekele va Yuan Gao rivojlanayotgan mamlakatlar misolida transport infratuzilmasiga investitsiyalarning bandlik multiplikatori 2,1–3,5 oralig'ida ekanligini empirik jihatdan asoslab, ushbu ko'rsatkichning tarmoqning texnologik uzluksizlik darajasi, ya'ni asosiy ishlab chiqarishning yondosh tarmoqlar bilan integratsiyasi bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatganlar.

Saras D. Venkataraman infratuzilma loyihalarida ijtimoiy xarajat–foyda tahlilining metodologik asoslarini ishlab chiqib, to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita ijtimoiy ta'sirlarni multiplikativ yondashuv asosida yagona tizimda baholash zarurligini asoslab bergan. Ushbu metodika mazkur tadqiqotda qo'llanilayotgan hisob-kitob tizimining metodologik poydevorini tashkil etadi.

Holger Dalkmann va Chris Brannigan transport sektorida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash hamda mehnatga layoqatli aholini hududlarda ushlab turish mexanizmlarini o'rganib, ish haqining mintaqaviy o'rtacha darajadan yuqori bo'lishi migratsion oqimlarni kamaytiruvchi asosiy omillardan biri ekanligini ta'kidlaganlar.

United Nations Economic Commission for Europe tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Yevropa transportsozlik sanoatida bandlik multiplikatori va soliq ta'siri ko'rsatkichlari qiyosiy tahlil qilinib, og'ir transport



vositalari ishlab chiqarishining mintaqaviy iqtisodiyotga ta'siri miqdoriy jihatdan asoslab berilgan. Ushbu natijalar mazkur tadqiqotda qo'llanilgan koeffitsiyentlarni tekshirish uchun xalqaro taqqoslama baza sifatida xizmat qiladi.

Eurostat esa yuk tashish sanoatining yalpi ichki mahsulot va aholi pul daromadlariga qo'shgan hissasini hisoblash metodologiyasini standartlashtirib, iste'mol multiplikatori asosida tarmoqning makroiqtisodiy ta'sirini baholash imkonini yaratgan.

MDH mamlakatlari olimlari ushbu muammoni o'ziga xos institutsional sharoitlar — markazlashtirilgan iqtisodiyot merosini bozor munosabatlariga moslashtirish jarayoni — nuqtai nazaridan tadqiq etganlar. Xususan, Nikolai I. Kabushkin transport-logistika menejmentining nazariy asoslarini ishlab chiqib, investitsion loyihalarning mintaqaviy ijtimoiy ta'sirini baholash metodikasini takomillashtirgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Asosiy ma'lumot manbalari sifatida quyidagilardan foydalanildi: (1) 2026-yil 21-fevraldagi PQ-72-son Prezident qarori; (2) O'zbekiston temir yo'llari AJ loyihasi bo'yicha ijtimoiy tahlil materiallari; (3) O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika organlarining 2023–2025-yillarga oid transport tarmog'i bo'yicha rasmiy ma'lumotlari; (4) xalqaro ilmiy adabiyotlar.

Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni baholashda uch bosqichli metodologik yondashuv qo'llanildi:

Birinchi bosqich — to'g'ridan-to'g'ri ta'sir tahlili. Mazkur bosqichda bevosita ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlar soni, ularning o'rtacha ish haqi hamda yillik ish haqi fondi (YIF) hisoblab chiqildi. Ushbu ko'rsatkichlar loyiha "ko'rinadigan" ijtimoiy samarasi — ya'ni to'g'ridan-to'g'ri bandlik va daromadga ta'sirini miqdoriy baholash imkonini beradi.

Ikkinchi bosqich — multiplikativ ta'sir tahlili. Bu bosqichda bandlik multiplikatori ($k_m = 2,3$) va iste'mol multiplikatori ($k_c = 1,6$) qo'llanildi. Bandlik multiplikatori vagonsozlik sanoatining texnologik uzluksizligini (metallurgiya, elektrotexnika, kimyo, logistika va boshqa tarmoqlar bilan integratsiya darajasi) hisobga olgan holda asosiy ish o'rinlaridan kelib chiqadigan qo'shimcha bandlikni baholaydi. Iste'mol multiplikatori esa xodimlar tomonidan sarflanadigan ish haqi mablag'larining mahalliy bozorda ikkilamchi daromadlar yaratish ta'sirini ifodalaydi. Mazkur multiplikator koeffitsiyentlari xalqaro empirik tadqiqotlar natijalariga asoslangan [6,7].

Uchinchi bosqich — byudjet va uzoq muddatli (10 yillik) samaradorlik tahlili. Mazkur bosqichda jismoniy shaxslar daromad solig'i (JSDS) hamda ijtimoiy soliq (12%) bo'yicha yillik tushumlar hisoblab chiqildi va 10 yillik davr uchun byudjet samarasi prognoz qilindi. Soliq yukini aniqlashda O'zbekiston Respublikasining amaldagi Soliq kodeksi (2020-yil, keyingi o'zgartirish va qo'shimchalar bilan) normalari asos qilib olindi. Shuningdek, daromad multiplikatsiyasi hisob-kitoblarida xodimlar ish haqi orqali shakllanadigan pul oqimlarining mahalliy tovar va xizmatlar bozoridagi aylanmaga ta'siri inobatga olindi.

Ijtimoiy samaradorlikning to'liq miqdoriy baholash imkoniyati cheklangan jihatlari — muhandislik kompetensiyalarining rivojlanishi, sanoat klasterlarining shakllanishi, mintaqaning investitsion jozibadorligining oshishi hamda mehnatga layoqatli aholining hududda ushlab qolinishiga ta'sir — sifat jihatdan ekspert baholash va timsol (case-study) tahlili asosida o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Loyiha ikki asosiy ishlab chiqarish korxonasini qamrab oladi: AJ "Liteyno-mexanik zavod" (LMZ, Toshkent viloyati) hamda AJ "Andijon avtomobil va traktori sanoati zavodlari remontlash vagonlari" (AZRV, Andijon viloyati). Mazkur korxonalaridagi ish o'rinlari tarkibiga payvandchilar, montajchi-slesarlar, sifat nazorati bo'yicha muhandislar, logistika mutaxassislari va boshqa mutaxassislar kiradi.

AJ LMZ bo'yicha bevosita band bo'lgan xodimlar soni 1 184 kishini tashkil etadi, o'rtacha oylik ish haqi esa 7 597 484 so'mni tashkil etib, bu ko'rsatkich mintaqaviy o'rtacha darajadan 15–20 foizga yuqori. Yillik ish haqi fondi 107 945,1 mln so'mga teng.

AJ AZRV bo'yicha esa bevosita band xodimlar soni 873 kishini tashkil etib, o'rtacha oylik ish haqi 6 699 529 so'm, yillik ish haqi fondi esa 70 184,3 mln so'mni tashkil etadi.

Natijada, har ikkala korxona kesimida yillik umumiy ish haqi fondi 178 129,4 mln so'mni tashkil etib, loyiha doirasida bevosita o'lchanadigan ijtimoiy samaradorlikning muhim ko'rsatkichi sifatida namoyon bo'ladi.

Ish haqi darajasining mintaqaviy o'rtacha ko'rsatkichdan 15–20 foizga yuqori bo'lishi muhim ijtimoiy ahamiyatga ega. Xususan, bu omil malakali kadrlarning boshqa hududlarga, jumladan, xorijiy davlatlarga



migratsiyasini qisqartirishga xizmat qiladi hamda sanoat korxonalari joylashgan hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

1-jadval. To'g'ridan-to'g'ri va bilvosita ijtimoiy bandlik samarasi

№	Ko'rsatkich	AJ "LMZ"	AJ "AZRV"	Jami
To'g'ridan-to'g'ri ta'sir				
1	Xodimlar soni, kishi	1 184	873	2 057
2	O'rtacha oylik ish haqi, so'm	7 597 484	6 699 529	—
3	Yillik ish haqi fondi (YIF), mln so'm	107 945,1	70 184,3	178 129,4
Bilvosita ta'sir (bandlik multiplikatori k=2,3)				
4	Yondosh tarmoqlardagi ish o'rinlari, ta	2 723	2 008	4 731
5	Mintaqada jami ish o'rinlari, ta	3 907	2 881	6 788
Soliq ijtimoiy samara				
6	Jismoniy shaxslar daromad solig'i (JSDS), mln so'm	12 953,4	8 422,1	21 375,5
7	Ijtimoiy soliq (12%), mln so'm	12 953,4	8 422,1	21 375,5
8	Yillik byudjet samarasi (jami), mln so'm	25 906,8	16 844,2	42 751,0
Aholi daromadlariga ta'sir				
9	Aholi pul daromadlarining yillik o'sishi (YIF), mln so'm	107 945,1	70 184,3	178 129,4
10	Iste'mol multiplikatori (k=1,6) bilan birga, mln so'm	172 712,2	112 294,9	285 007,0
10 yillik ijtimoiy samaradorlik				
11	Byudjet samarasi, mlrd so'm	259,1	168,4	427,5
12	Aholi daromadlari, mlrd so'm	1 079,5	701,8	1 781,3

Manba: OTY AJ loyihasi ijtimoiy tahlili ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan (2026).

Vagonsozlik sanoati yuqori texnologik uzluksizlik koeffitsiyentiga ega tarmoq sifatida bandlik bo'yicha kuchli multiplikativ ta'sirni namoyon etadi. Loyiha doirasida qo'llanilgan bandlik multiplikatori ($k_m = 2,3$) shuni anglatadiki, ishlab chiqarish korxonalarida yaratilgan har bir ish o'rni yondosh tarmoqlarda — qora va rangli metallurgiya, mashinasozlik, kimyo sanoati, elektrotexnika, avtotransport logistikasi hamda texnik xizmat ko'rsatish sohalarida — qo'shimcha 1,3 ta ish o'rining yaratilishiga olib keladi.

Hisob-kitoblarga ko'ra, AJ "Liteyno-mexanik zavod" (LMZ) va AJ "Andijon avtomobil va traktori sanoati zavodlari remontlash vagonlari" (AZRV) bo'yicha yondosh tarmoqlarda 4 731 ta qo'shimcha ish o'rni yaratiladi. Natijada loyiha mintaqaviy iqtisodiyotda jami 6 788 ta ish o'rni yaratilishini ta'minlashi prognoz qilinmoqda. Ushbu ko'rsatkich loyihaning mehnat bozori uchun strategik ahamiyatini yaqqol namoyon etadi.

Mintaqaviy iqtisodiy faollik nuqtai nazaridan loyiha mahalliy ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalar uchun barqaror talabni shakllantiradi. Jumladan, metiz va quyma mahsulotlar ishlab chiqaruvchilar, elektrotexnika sanoati, rezina-texnika buyumlari ishlab chiqaruvchilari, yuk tashish xizmatlari hamda texnik servis tarmoqlari ushbu jarayonda faol ishtirok etadi. Bu esa milliy sanoat klasterining shakllanishiga xizmat qiladi.

Soliq samarasi loyihaning moliya tizimiga integratsiyalashuvini ifodalovchi muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Hisob-kitoblarga ko'ra, loyiha doirasida yillik jismoniy shaxslar daromad solig'i (JSDS) 21 375,5 mln so'mni tashkil etadi. Shu bilan birga, ijtimoiy soliq (12% stavkada) ham xuddi shu miqdorda shakllanadi. Natijada umumiy yillik byudjet samarasi 42 751,0 mln so'mga yetadi.

10 yillik istiqbolda loyihadan olinadigan umumiy byudjet samarasi 427,5 mlrd so'mni tashkil etishi kutilmoqda. Bu ko'rsatkich loyiha uchun jalb qilingan 100 million AQSh dollari miqdoridagi kreditning asosiy qarzi va foiz to'lovlarini qoplashda davlatning moliyaviy yukini sezilarli darajada kamaytiradi. Shuningdek, soliq tushumlarining barqarorligi davlat byudjetini rejalashtirish hamda ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirish uchun ishonchli manba bo'lib xizmat qiladi.

Ishchilarning ish haqi ko'rinishida olgan daromadlari mahalliy tovar va xizmatlarga yo'naltirilishi natijasida daromad multiplikatsiyasi yuzaga keladi. Iste'mol multiplikatori ($k_c = 1,6$)ni hisobga olgan holda yillik ish haqi fondi (178 129,4 mln so'm) aholi daromadlariga 285 007,0 mln so'mlik umumiy ta'sir ko'rsatadi.

Natijada 10 yillik davrda aholining kumulyativ daromadlari 1 781,3 mlrd so'mga yetishi prognoz qilinmoqda. Bu esa ko'chmas mulk birlamchi bozori, qurilish materiallari (sement, qum, g'isht, armatura), oziq-ovqat va xizmat ko'rsatish sohalarida talabning kengayishiga olib kelib, mintaqaviy turmush sifatini oshirishga xizmat qiladi.



Shuningdek, O'zbekiston temir yo'llari AJ tizimida hozirda 61 mingdan ortiq xodim faoliyat yuritadi va ularning mehnat sharoitlari muntazam nazorat ostida. Loyiha doirasidagi korxonalarda 886 nafar xodim noqulay mehnat sharoitida ishlashi sababli ular uchun maxsus kompensatsion chora-tadbirlar belgilangan. Bundan tashqari, 86 nafar mehnat muhofazasi mutaxassisi malaka oshirish kurslarini tamomlab, tegishli sertifikatlarga ega bo'lgan. Bu holat loyihada mehnat xavfsizligi standartlariga yuqori darajada e'tibor qaratilayotganini ko'rsatadi.

Miqdoriy natijalar bilan bir qatorda loyiha bir qator nomoddiy ijtimoiy samaralarni ham yuzaga keltiradi:

- muhandislik kompetensiyalarining rivojlanishi;
- sanoat klasterining shakllanishi;
- mintaqaning investitsion jozibadorligining oshishi;
- mehnatga layoqatli aholini hududlarda ushlab qolish;
- logistika samaradorligi orqali aholi turmush sifatining yaxshilanishi.

Olingan natijalar loyiha ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligining kompleks xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi. Bevosita 2 057 ta ish o'rni yaratilishi orqali mintaqada jami 6 788 ta ish o'rni shakllanishi tarmoqlararo aloqalarning kuchliligini tasdiqlaydi.

Mazkur natijalar xalqaro empirik tadqiqotlar bilan ham mos keladi. United Nations Economic Commission for Europe ma'lumotlariga ko'ra, Yevropada transportsozlik sanoatida bandlik multiplikatori 2,1–3,5 oralig'ida shakllanadi. Tadqiqotda qo'llanilgan $k_m = 2,3$ koeffitsiyenti ushbu diapazonning pastki chegarasiga mos kelib, O'zbekistonda yondosh tarmoqlarning rivojlanish darajasini hisobga olgan holda realistik baho sifatida qaraladi. Kelgusida sanoat klasterining chuqurlashuvi natijasida ushbu ko'rsatkich 3,0–4,0 diapazonga yetishi mumkin.

Iste'mol multiplikatori ($k_c = 1,6$) qo'llanilishi ham asosli hisoblanadi, chunki ish haqi daromadlarining katta qismi mahalliy bozorda sarflanadi. Shu bilan birga, import tovarlariga sarf ulushining ortishi yoki jamg'arma darajasining o'zgarishi mazkur ko'rsatkichni qayta baholashni talab qilishi mumkin.

Soliq samarasi nuqtai nazaridan loyiha 10 yillik davrda 427,5 mlrd so'mlik byudjet ta'sirini ta'minlaydi. Bu esa davlat tomonidan jalb qilingan tashqi moliyalashtirish yukini qisman kompensatsiya qilish imkonini beradi hamda loyihaning fiskal barqarorligini oshiradi.

Loyihaning muhim strategik jihatlaridan biri — transport infratuzilmasidagi “vagon taqchilligi” muammosini bartaraf etishga qaratilganidir. 2026-yilda 2 000 ta yangi vagon ishlab chiqarish va xalqaro tashuvlarda foydalaniladigan vagonlar sonini 15 300 taga yetkazish ushbu muammoni hal etishda muhim qadam hisoblanadi.

Tadqiqotning ayrim cheklavlari ham mavjud. Birinchidan, ijtimoiy tahlil natijalari loyiha bosqichidagi prognozlariga asoslangan bo'lib, amaliy natijalar ma'lum darajada farq qilishi mumkin. Ikkinchidan, ekologik ta'sir (chiqindilar, shovqin, emissiyalar) mazkur tadqiqot doirasida ko'rib chiqilmagan va alohida o'rganishni talab etadi. Uchinchidan, hududlar kesimida iqtisodiy tuzilma farqlari (Toshkent va Andijon viloyatlari) multiplikator ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot O'zbekiston temir yo'llari AJ tomonidan amalga oshirilayotgan yuk vagonlari ishlab chiqarish loyihasining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini miqdoriy va sifat jihatdan baholab, quyidagi xulosalarga olib keldi:

Birinchi xulosa. Loyiha bevosita 2 057 ta sanoat ish o'rnini yaratadi. Bandlik multiplikatori ($k = 2,3$) hisobga olingan holda, ushbu ko'rsatkich mintaqaviy iqtisodiyotda 6 788 ta ish o'rniga yetadi. Bu vagonsozlik sanoatining yondosh tarmoqlar bilan kuchli texnologik bog'liqligini tasdiqlaydi.

Ikkinchi xulosa. Yillik 178 129,4 mln so'mlik ish haqi fondi iste'mol multiplikatori ta'sirida 285 007,0 mln so'mlik aholi daromdlari o'sishini ta'minlaydi. 10 yillik kumulyativ daromad ta'siri 1 781,3 mlrd so'mni tashkil etib, mintaqaviy iqtisodiy resurslarning sezilarli kengayishiga xizmat qiladi.

Uchinchi xulosa. Yillik byudjet samarasi 42 751,0 mln so'mni, 10 yillik istiqbolda esa 427,5 mlrd so'mni tashkil etadi. Bu loyiha qisman o'zini-o'zi moliyalashtirish (self-sustainability) xususiyatiga ega ekanligini ko'rsatadi.

To'rtinchi xulosa. Nomoddiy ijtimoiy samaralar — muhandislik kompetensiyalarini rivojlantirish, sanoat klasterini shakllantirish, mintaqaning investitsion jozibadorligini oshirish hamda “vagon taqchilligi” muammosini bartaraf etish — loyihaning strategik qiymatini moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda kuchaytiradi.

Mazkur xulosalar asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

– loyiha doirasida mahalliy komponentlar ulushini (lokalizatsiya darajasini) oshirish orqali bandlik va daromad multiplikatorlarini $k = 3,0–4,0$ darajaga yetkazish maqsadga muvofiq. Buning uchun metall quyma, metiz hamda elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalar bilan uzoq muddatli hamkorlik shartnomalarini yo'lga qo'yish tavsiya etiladi;

– mintaqaviy iqtisodiyotga ta'sirni kuchaytirish maqsadida vagonsozlik atrofida sanoat klasteri konsepsiyasini ishlab chiqish hamda klaster ishtirokchilari uchun rag'batlantiruvchi (jumladan, soliq) mexanizmlarni joriy etish maqsadga muvofiq;



– ekologik xavflarni boshqarish (ishlab chiqarish chiqindilari, shovqin darajasi, atmosfera ifloslanishi) bo'yicha alohida monitoring tizimini joriy etish loyihaning barqaror rivojlanish mezonlariga muvofiqligini ta'minlaydi;

– loyiha samaradorligini baholashda ijtimoiy ko'rsatkichlar monitoringini yo'lga qo'yish (bandlik darajasi, ish haqi dinamikasi, soliq tushumlari) orqali obyektiv va tizimli axborot bazasini shakllantirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston temir yo'llari AJ. Yuk vagonlari ishlab chiqarish loyihasining ijtimoiy tahlili. – Toshkent: OTY AJ, 2026. – 18 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2020.
3. O'zbekiston Respublikasining "Mehnat muhofazasi to'g'risida"gi Qonuni. – 2016-yil 23-sentabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Transport tarmog'i bo'yicha statistik ma'lumotlar (2022–2025). – stat.uz.
5. United Nations Economic Commission for Europe. Transport Statistics in Europe and North America. – Geneva: UNECE, 2022. – 142 p.
6. Eurostat. Transport Statistics – Freight. – Luxembourg: European Commission, 2023.
7. Bekele G., Gao W. Multiplier Effects of Transport Infrastructure Investment: Evidence from Developing Economies // Journal of Transport Economics and Policy. – 2022. – Vol. 56, No. 2. – P. 115–134. – DOI: 10.1017/S0022166922000041.
8. Venkataraman R. Social Cost-Benefit Analysis in Infrastructure Projects: Methodological Framework // International Journal of Project Management. – 2021. – Vol. 39, No. 4. – P. 389–402. – DOI: 10.1016/j.ijproman.2021.01.005.
9. Raximov Z.O. Turizmni strategik rejalashtirishda axborot bilan ta'minlashning o'rni // Builders of the Future. – 2022. – No. 2.
10. Tuxliev N., Abdullayeva T. O'zbekistonda iqtisodiy rivojlanishning milliy modellari. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.
11. Кабушкин Н.И. Менеджмент гостиниц и ресторанов. – Минск: Новое знание, 2009. – 416 с.
12. Dalkmann H., Brannigan C. Transport and Climate Change // Sustainable Transport: A Sourcebook for Policy-makers in Developing Cities. – Eschborn: GTZ, 2007. – Module 5e. – P. 1–48.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
